

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi, FarDU, Nemis va fransuz tillari kafedrası mudiri, Pedagogika fanlari doktori (DSc)
laie-91@mail.ru ORCID-0000-0002-0057-6582



BO‘LAJAK NEMIS TILI O‘QITUVCHILARIDA XATOLARNI BARTARAF ETISHDA METAKOGNITIV KOMPETENTLIKNING (O‘Z-O‘ZINI KUZATISH VA BOSHQARISH QOBILİYATI) NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilarida xatolarni bartaraf etish jarayonida metakognitiv kompetentlikning namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda metakognitsiya tushunchasining nazariy asoslari, o‘z-o‘zini kuzatish (monitoring) va o‘z-o‘zini boshqarish (regulyatsiya) mexanizmlarining xatolar ustida ishlash jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, xatolarni aniqlash, tahlil qilish va tuzatish bosqichlarida refleksiv faoliyatning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda metakognitiv yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: metakognitiv kompetentlik, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini boshqarish, xatolarni bartaraf etish, refleksiya, bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilari, kasbiy kompetensiya, til o‘qitish metodikasi

THE MANIFESTATION OF METACOGNITIVE COMPETENCE (SELF-MONITORING AND SELF-REGULATION ABILITY) IN ERROR CORRECTION AMONG PRE-SERVICE GERMAN LANGUAGE TEACHERS

Annotation: This article examines the manifestation of metacognitive competence in pre-service German language teachers during the process of error correction. The study explores the theoretical foundations of metacognition, focusing on self-monitoring and self-regulation mechanisms in identifying, analyzing, and correcting linguistic errors. Special attention is given to reflective practices in the development of professional teaching competence. The findings highlight the importance of strengthening metacognitive strategies in teacher education programs to enhance effective error correction skills.

Keywords: metacognitive competence, self-monitoring, self-regulation, error correction, reflection, pre-service German teachers, professional competence, language teaching methodology.

ПРОЯВЛЕНИЕ МЕТАКОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ (СПОСОБНОСТИ К САМОНАБЛЮДЕНИЮ И САМОРЕГУЛЯЦИИ) В ПРОЦЕССЕ УСТРАНЕНИЯ ОШИБОК У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье анализируется проявление метакогнитивной компетентности у будущих учителей немецкого языка в процессе устранения ошибок. Рассматриваются теоретические основы метакогниции, механизмы самонаблюдения (мониторинга) и саморегуляции при выявлении, анализе и исправлении языковых ошибок. Особое внимание уделяется роли рефлексивной деятельности в формировании профессиональной компетентности педагога. Результаты исследования подчеркивают необходимость усиления метакогнитивного подхода в системе подготовки учителей.

Ключевые слова: метакогнитивная компетентность, самонаблюдение, саморегуляция, исправление ошибок, рефлексия, будущие учителя немецкого языка, профессиональная компетентность, методика обучения языку

Kirish

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida metakognitiv kompetentlik muhim o'rin tutadi. Chet tilini o'qitish metodikasida xatolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish o'qituvchining asosiy kasbiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nemis tili kabi grammatik jihatdan murakkab tilni o'qitishda xatolar bilan ishlash samarali metodik yondashuvni talab qiladi [7].

Metakognitsiya – bu shaxsning o'z bilish jarayonlari ustidan ongli nazoratni amalga oshirish qobiliyatidir [4]. U o'z-o'zini kuzatish (monitoring) va o'z-o'zini boshqarish (regulyatsiya) komponentlarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak nemis tili o'qituvchisi xatolarni tahlil qilish jarayonida nafaqat lingvistik bilimlarga, balki o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, pedagogik vaziyatni baholash va to'g'ri strategiyani tanlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida xatolarni tuzatish ko'pincha mexanik jarayon sifatida talqin qilinadi, metakognitiv jihatlar esa yetarlicha rivojlantirilmaydi. Holbuki, refleksiv va ongli yondashuv xatolarni samarali bartaraf etishning asosiy shartlaridan biridir [5]. Shu bois mazkur tadqiqot bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikning namoyon bo'lish mexanizmlarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Metakognitiv kompetentlik tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol o'rganila boshlandi. Metakognitsiya nazariyasining asoschisi sifatida J.Flavell e'tirof etiladi [4]. U metakognitsiyani shaxsning o'z bilish jarayonlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati sifatida talqin etadi. J.Flavell tomonidan metakognitiv bilim va metakognitiv nazoratni ajratib ko'rsatiladi, bu esa o'z-o'zini kuzatish (monitoring) va boshqarish (regulyatsiya) mexanizmlarini tushuntirishga asos bo'ldi.

Metakognitiv kompetentlikni o'lchash va tuzilmasini aniqlash borasida G.Schraw va R.Dennison tomonidan ishlab chiqilgan Metacognitive Awareness Inventory (MAI) modeli muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Mazkur model metakognitiv bilim va metakognitiv regulyatsiya komponentlarini ajratadi. Bu yondashuv pedagogik faoliyatda o'z-o'zini tahlil qilish mexanizmlarini aniqlashda keng qo'llaniladi.

O'z-o'zini boshqarish nazariyasi doirasida B.Zimmerman ta'lim jarayonida self-regulated learning konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, samarali o'qituvchi o'z faoliyatini rejalashtiradi, monitoring qiladi va natijani refleksiya asosida baholaydi. Ushbu nazariya bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy refleksiyani shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [7].

Chet til o'qitishda xatolar masalasi ilk bor tizimli ravishda S.Corder tomonidan yoritilgan. U xatolarni o'quvchining til o'zlashtirish jarayonidagi tabiiy bosqich sifatida talqin etadi [1]. Keyinchalik R.Ellis ikkinchi tilni o'zlashtirish nazariyasida interlanguage tushunchasini ishlab chiqib, xatolarni rivojlanish ko'rsatkichi sifatida izohlaydi[3].

Nemis tilini o'qitish metodikasida xatolarni tuzatish masalasi H.Funk va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan "Deutsch lehren lernen (DLL)" konsepsiyasida keng yoritilgan. Unda reflektiv yondashuv, kuzatuv va o'z faoliyatini tahlil qilish o'qituvchi kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida ko'riladi [5].

Yevropa til siyosati doirasida Council of Europe tomonidan ishlab chiqilgan *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)* va uning Companion Volume nashrida strategik va mediatsion kompetensiyalar o'qituvchi va o'quvchining reflektiv faoliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu esa metakognitiv kompetentlikni til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda metakognitsiya va xatolarni tahlil qilish alohida yo'nalish sifatida keng o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish jarayonida metakognitiv kompetentlikning namoyon bo'lish mexanizmlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni integratsiyalash va ularni o'qituvchilar tayyorlash tizimiga tatbiq etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv pedagogika va metakognitiv nazariya tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida metakognitsiya konsepsiyasi (o'z-o'zini kuzatish va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari), xatolarni tahlil qilish nazariyasi hamda kasbiy kompetensiya modeli qabul qilindi.

Tahlil va natijalar

Quyida esa bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlanganligi (o'z-o'zini kuzatish va boshqarish qobiliyati) qanday darajalarda namoyon bo'lishi mumkinligiga to'xtalib o'tmoqchimiz:

birinchidan talabalarning metakognitiv bilimi darajasida, ya'ni ularning xatolar nima sababdan yuzaga kelishi, ularni qanday turlarga ajratish mumkinligi haqidagi bilimlarga ega ekanliklari;

ikkinchidan talabalarning o'zlari ustidan metakognitiv nazoratlari darajasida, ya'ni xatolar bilan ishlashni rejalashtirish, o'zi hamda guruhdoshlarining xatolarini monitoring qilish, o'z-o'zini baholash va xatolarni to'g'rilash uchun mos metodik yondashuvni tanlash, ularni o'z o'rganish uslubiga moslashtirish ko'nikmalariga ega ekanliklari.

Nemis tilida so'zlashuvchi Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi davlatlarda xatolar bilan ishlashda GER (Gemeinsame Europäische Referenzrahmen) ga tayaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- Selbststeuerung va Lernstrategien (O'zini boshqarish va o'rganish strategiyalari): darslik va modul tarkibida til o'rganuvchi uchun o'z-o'zini boshqarish mahoratlari (rejalash, muddat belgilash, o'zini tekshirish) integratsiyasiga asoslangan topshiriqlar beriladi.

- Fehlerportfolio / Lernjournal (Xatolar portfoliosi/O'rganish jurnalini): til o'rganuvchi doimiy ravishda xatolarini kategoriya va sabab bo'yicha ro'yxatlaydi, qoidani qayta yozadi, keyingi dars uchun "Ein Schritt vorne" (bir qadam oldinga) maqsad qo'yadi.

Strategie-Checklisten (Strategiyalarni nazorat qilish ro'yxati): "Gapda fe'lning o'rni tekshirildimi?", "Kelishik signal so'zlari tekshirildimi?" "Otning artikli to'g'ri qo'yildimi?" kabi metakognitiv tekshiruv ro'yxatlari shakllantiriladi.

Skandinaviyada esa formativ baholashning kuchli an'anasi mavjud bo'lib, u Feed up – Feed back – Feed forward modeliga asoslanadi. Bunda o'rganishdan maqsadni aniq qo'yish, hozirgi holatga nisbatan dalil fikr bildirish, keyingi qadamni rejalashtirishga tayaniladi. O'qituvchi fikridan tashqari til o'rganuvchilar peer-assessment, ya'ni guruhdoshlar tomonidan tekshirishga va self-assessment, ya'ni til o'rganuvchining o'z ishini o'zi tekshirishiga va xatolarni aniqlashiga muntazam undab boriladi. Bu jarayonda “xatoni topish → sababini tushuntirish → tuzatish → transfer” rubrikalari zanjiri asosida ishlash talab qiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya tajribasida esa xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi.

- Think-aloud (Denklaut-Methode), ya'ni ovoz chiqarib fikrlash usuli: til o'rganuvchi gap tuzayotganda ichki monitoringini ovozga chiqarishi talab etiladi, chunki har bir til o'rganuvchi gapini aytishdan oldin, tuzayotgan gapni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ovozini chiqarmasdan tahlil qiladi, bu odatda qisqa soniyalarda amalga oshadi; xatoni aniqlash va to'g'rilash usullarini (reformulatsiya, qayta tekshirish, resursga murojaat) bilvosita o'rgatiladi.

Germaniya tajribasiga ko'ra xatolar bilan ishlashni darsni rejalashtirishga integratsiya qilish ham amaliy tajribalardan biri hisoblanadi. Bunda o'quv jarayonini rejalashda “xato diagnostikasi”, “shaxsiy maqsadlar”, “monitoring” kabi qismlar kiritib ketiladi. Fan yoki modulni o'qitishni boshida qisqa yozma/og'zaki vazifa orqali til o'rganuvchilar yo'l ning tipik xatolari xaritasi tuziladi. Masalan, shaxsiy maqsadlar yondashuvida “Men kurs oxirida qo'shma gaplarda fe'lni qaysi o'rinda kelishini to'g'ri qo'ya olaman”, “Majhul nisbatdagi gaplarni to'g'ri tuzish ko'nikmasiga ega bo'laman” mazmunidagi maqsadlar shakllantiriladi.

Odatda darsda xatolarga bo'lgan munosabatga xatoga yana yo'l qo'ymaslikni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Bu holatda xatoning nima ekanligi emas, balki til o'rganuvchilarning xato bilan qanday muammolari borligi va o'qituvchining xatodan nimani tushunib olayotgani muhim. Xatolar bilan kreativ ishlash esa xatoga qayta yo'l qo'yish holatini kamaytirishga xizmat qiladi[1;2.].

Xatoni to'liq ta'riflash murakkab jarayon bo'lib, uni turli qarashlar, me'zonlar asosida ta'riflash maqsadga muvofiq. Til o'rganuvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni e'tibordan chetda qoldirmaslik va ular bilan muntazam ishlashni yo'lga qo'yish esa darsning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni bartaraf etish jarayonida metakognitiv kompetentlikning rivojlanganligi ularning reflektiv faolligi, tahliliy fikrlashi va pedagogik qaror qabul qilish samaradorligida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini kuzatish xatoni aniqlash va uning sabablarini anglash imkonini bersa, o'z-o'zini boshqarish to'g'ri tuzatish strategiyasini tanlash va o'quv jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv kompetentlikni tizimli ravishda rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan oshiradi hamda xatolarni tuzatish madaniyatini shakllantiradi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim dasturlarida metakognitiv strategiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Corder, S. P. (1967). *The significance of learners' errors*. International Review of Applied Linguistics.

2. Dulay, H., Burt, M., & Krashen, S. (1982). *Language Two*. Oxford University Press.
3. Ellis, R. (1994). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
4. Flavell, J. H. (1979). *Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry*. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
5. Funk, H., & Kuhn, C. (2014). *Deutsch lehren lernen (DLL)*. München: Klett-Langenscheidt.
6. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). *Assessing metacognitive awareness*. *Contemporary Educational Psychology*, 19(4), 460–475.
7. Zimmerman, B. J. (2002). *Becoming a self-regulated learner*. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.

D.S. Saidkodiroya, Doctor of Philological Sciences (DSc) Uzbek State World Languages University ORCID: 0009-0004-8612-8634 E-mail: disuper@mail.ru



STRUCTURAL AND FUNCTIONAL TYPOLOGY OF ABBREVIATIONS IN ENGLISH AND UZBEK INTERNET TERMINOLOGY

Abstract: The rapid development of Internet technologies has profoundly transformed the mechanisms of terminological formation in global linguistic systems. Within this dynamic digital environment, abbreviation has evolved from a peripheral stylistic device into a structurally dominant and functionally indispensable mechanism of lexical compression. The present study investigates the structural typology, functional motivation, and cross-linguistic adaptation of abbreviations in English and Uzbek Internet terminology. The research is based on a corpus of 412 terminological units collected from technical documentation, academic publications, digital glossaries, and official Internet standards between 2010 and 2024. Through a multi-layer coding model, abbreviations were classified according to structural type, etymological origin, and functional role. Quantitative analysis demonstrates that initialisms and alphanumeric constructions dominate in English, whereas Uzbek terminology exhibits a strong tendency toward assimilated borrowing and phonetic adaptation. The findings confirm that abbreviation functions not only as a means of linguistic economy but also as a cognitive-nominative instrument ensuring conceptual stability and global interoperability. The study contributes to comparative terminology research and proposes recommendations for standardization in Uzbek academic discourse.

Keywords: abbreviation, acronym, initialism, alphanumeric formation, Internet terminology, borrowing, lexicalization, nominative function, terminological standardization, morphological productivity, domain system, protocol terminology, linguistic economy, digital discourse, cross-linguistic adaptation

Annotatsiya: Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi global til tizimlarida terminologik shakllanish mexanizmlarini chuqur o'zgartirdi. Ushbu dinamik raqamli muhitda abbreviatura periferik stilistik qurilmadan leksik siqishning tarkibiy jihatdan ustun va